

O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN LOGISTIKA ASOSLARI FANIDAN MALAKA TEST SINOV TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida logistika asoslari talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me'yoriy asoslar

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 572-sonli Qarori.**

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

I.Avtomobillarda yuk tashishni tashkil qilish

1. Transport va transport jarayoni.;
2. Yuk va yuk oqimi;
3. Yuk tashishni tashkil etish;
4. Harakat tarkib texnik ekspluatatsion ko'rsatkichlari;
5. Avtomobillarda yuk tashishni rejalashtirish.

II.Avtomobillarda yo'lovchilar tashish

- 2.1. Yo'lovchi avtomobil transporti tarkibi;
- 2.2. Avtobuslarda tashishni tashkil qilish;
- 2.3. Avtobuslarda tashini nozimlik boshqaruvi;
- 2.4. Avtobuslar ishini samaradorligini oshirish yo'llari.

III.Logistika asoslari

- 3.1. Logistika kursining vazifasi;
- 3.2. Logistikaning jarayonlari va funksiyalari;
- 3.3. Logistikada oqimlar jarayonlari;
- 3.4. Transport logistikasi.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstuktlar

T/ r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1.Yuk tashish va uni tashkil qilish				
1.1	Transport va transport jarayoni.	Transport jarayonlarini bilishi lozim. Yagona transport tizimi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishi kerak	9%	3 ta
1.2	Yuk va yuk oqimi.	Yuklar va ularning turkumlarini ajrata olish haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	5%	2 ta
1.3	Yuk tashishni tashkil etish.	Yuk tashish tashkilotlarini ishini tashkil etish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.	5%	2 ta
1.4	Harakat tarkib texnik ekspluatatsion ko'rsatkichlari.	Harakat tarkibdan foydalanish ko'rsatkichlarini hisoblay olishi lozim. Harakat tarkib parki ko'rsatkichlarini bilishi kerak. Harakat tarkib bosib o'tgan masofasini bilishi kerak. Harakat tarkib ish unumdorligini hisoblay olishi kerak.	11%	4 ta
1.5	Avtomobillarda yuk tashishni rejalashtirish.	Ratsional yo'nalishlar ishlab chiqishi bilishi kerak.	2%	1 ta
2.Avtomobillarda yo'lovchilar tashish				
2.1	Yo'lovchi avtomobil transporti tarkibi.	Avtobus harakat tartib turlarini bilishi kerak.	8%	3 ta
2.2	Avtobuslarda tashishni tashkil qilish	Yo'nalish tarmog'i to'g'risida barcha ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Avtobuslar ishini tasarruf ko'rsatkichlarini hisoblash. Yo'lovchilar oqimini aniqlash. Haydovchilar mehnatini tashkil etishni haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	15%	7 ta
2.3	Avtobuslarda tashishning nozimlik boshqaruvi.	Nozimlik ishlarini bilishi kerak. Avtobuslar harakat muntazamligini hisoblash haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	2%	1 ta
2.4	Avtobuslar ishini samaradorligini oshirish yo'llari	Yo'lovchi avtomobil transportida tariflar tizimini hisoblash va ularni qo'llay olishi kerak.	2%	1 ta
3. Logistika asoslari				

3.1	Logistika kursining vazifasi.	Logistikaning vujudga kelishi, Logistikaning rivojlanish bosqichlari. Logistik tamoyillarni bilishi kerak. Logistika zanjirini bilishi kerak. Logistikani oltin qoidasini, logistikaning qismlarini, logistika konsepsiyasini bilishi kerak.	10%	4 ta
3.2	Logistikaning jarayonlari va funksiyalari	Xizmat sohalari va ularning ta’rifi bilishi kerak. Logistika tizimining marketing bilan bog‘liqligini qo‘llay olishi kerak. Logistikada strategiya va rejalashtirishni bilishi kerak. Logistika tomonidan boshqariladigan tashkiliy tizimni bilishi kerak. Makro va mikrologistikaning vazifalarini bilishi kerak.	15%	6 ta
3.3	Logistikada oqimlar jarayonlari.	Moddiy oqimlarni boshqarishni bilishi kerak. Axborot oqimlarini boshqarish. Moliyaviy oqimlarni boshqarishni haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim.	5%	2 ta
3.4	Transport logistikasi.	Logistikada transportning vazifalari. Transport turini tanlay olishi kerak. Mahsulotlarni yetkazib berish tizimini boshqarish haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim.	10%	4 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko‘nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma’lumotni, atama va qoidalarini eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	50 %
2.	Qo‘llash	O‘zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta’limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	40 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog‘liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	10 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To‘rtta variantdan bittasi to‘g‘ri bo‘lgan muqobil javobli yopiq test

2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1.E.Karimov "Avtomobillarda yuk tashish va uni tashkil qilish" Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Toshkent -2002 y

2.E.Karimov "Avtomobillarda yo'lovchilar tashish. Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Toshkent-2002 y

3.D.M. Umarova, M.A. Bo'ronova "Logistika" Toshkent 2016

4. Tairova M.M., Abdulloyev A.J "Logistika" Toshkent 2020

5.Qulmuxamedov J.R. , Nazarov K.M. "Logistika asoslari" Toshkent 2015

6.Butayev Sh.A., Sidiqnazarov Q.M., Murodov A.S., Qo'ziyev A.U. «Logistika» (Yetkazib berish zanjirida oqimlarni boshqarish). Monografiya. T.: «EXTREMUM-PRESS» nashriyoti, 2012

7. Dadabayev Q.A. «Logistika». T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi nashriyoti, 2004

